

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2021-10

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2021

Олимжонов Х. А. Мустамлака маъмуриятининг Сирдарё ва Каспийорти вилоятларида кутубхоналар ташкил этишига доир	346
Орзиев М.З., Кўчаров Ж.К. Амир Темур сиёсий фаолияти ва Бухоро уламолари	351
Ражабов Х.Ч. Аҳмад Закий Валидий Тўғоннинг ташки сиёсат ва халқаро муносабатлар тарихида тутган ўрни	354
Садуллаева В. Амир Абдулахадхон даврида маориф	359
Сейтимбетова Н.М. Межнациональные отношения – как неотъемлемая часть международных отношений	363
Тураев А.С. АҚШда неоконсерватизм мафкурасининг шаклланиши ва ғоявий ривожланиш босқичлари	367
Ходжанов М.И. Арвохларга атаб чирок ёкиш одати	369

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Erdanova S.A. Conceptual research of the concept of "money" in linguoculturology	373
Eshbo'tayeva Sh. O'zbek tili musiqiy terminlarida metafora	375
Fattoyeva Z.R. Kadastrga oid qisqartma so'zlarning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi	379
Fozilova N. The types of tasks and their usage in class	382
Ismoilov I. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida fol motivi va uning ildizlari	384
Jakbarov M.P. Peculiarities of translation of scientific and technical texts	387
Khakimova M.Kh. 3D learning environment as an important innovative technology for English language classrooms	390
Maxmudov R. Ogahiy tarixiy asarlaridagi "Avesto"ga oid ayrim o'zlashmalarning geniologik tahlili	393
Maxmudov R. Ogahiy tarixiy asarlaridagi yevropa tillaridan o'zlashgan ayrim so'zlarning genezisi	399
Namazova U.S. Dialogue-experience is the source of teaching	402
Rasulova M.A. Innovative approach in the teaching english language	404
Sherg'oziyeva G.A. Mo'minjon Toshqin – jadid adabiyotining so'nggi vakili	406
Shokirova D.A., Shokirov Sh.I. Analysis of the semantic features of words with the concept of "property"	409
Xajiyeva D.A. Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkum she'rlarida latifalardan foydalanish mahorati	413
Xudoyberdiyeva G.Sh. Zamonaviy ingliz bolalar adabiyoti yozuvchilari va ularning asarlarini o'ziga xosligi	417
Абдуллоев Ш.Б. Ахура Маздага қарши курашда даъва култининг моҳияти	419
Жумаева Ш.Ш. Ибораларни иккинчи тилга эквивалентлар ёрдамида таржима қилиш	422
Қозоқбоева Д. Ўзбек тилида "қулоқ" семантикасига эга бўлган гапларнинг прагматик хусусиятлари	425
Маннонова С.А. Тижорий ёзишмаларнинг коммуникатив- прагматик аспекти	428
Мухаммедова Н. Тони Моррисоннинг "Сулаймон қўшиғи" романида мифлар моҳияти	431
Мухаммедова Х. Энн Бронте ижодида биографик манбалар	434
Омонов Б. Геологияга оид терминларнинг лингвистик хусусиятлари	437
Орипова Г.М. Жанр тушунчаси генезиси ва моҳияти	440
Остонова С.Н. Национальные традиции основа перевода в культурных подборках	443
Очилов У.С. А. Қодирийнинг "Ўткан кунлар" асарида образларнинг ўзига хос хусусиятлари	445
Очилов У.С. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" асарида натуралистик образлар	447
Очилова О., Машарибова Р. Бир башорат хайратлари	450
Сабирова Н.Э. Хоразм дostonчилиқ мактаблари	453
Ташева Н.З. Тамбулен Великий как психотип восточного правителя в поэзии Кристофера Марлоу	457
Худайкулова Л.А. "Алпомиш" дostonида никоҳ тўйи маросимларининг бadiий талқини	461
Юлдашев Д.Т. Антропонимларда саналаштириш тамойили ва тилақ отларининг ўзига хосликлари	464

America. This may explain that the term MONEY caught our attention precisely as a fragment of the American worldview. We are interested in the average American's perception of money, which is reflected in the language units in which he speaks about money.

According to Y.S. Stepanov, "money" is one of the fundamental cultural terms that are included in the categorization of today's world [3, p. 661]. This is entirely justified since money is one of the basic concepts of human experience, an integral attribute of modern civilization. The proposed research is an attempt at a comprehensive description of the means of linguistic representation of the cultural concept of MONEY. The consideration of this concept and its linguistic means of expression is of interest as it is only possible in combination with data from other linguistic sciences.

So, with the help of language material, a specific portrait of the concept under consideration is presented in this article. The study showed that the prominent fragment is very representative in the American worldview, as it is important for man's understanding of the world and his present existence in it. The meaning of the term MONEY is confirmed by different linguistic ways of naming and description.

In addition to the general information potential, language also brings in-depth information about the associations of a particular society, its value system and its culture. One approach to the problem of identifying cognitive differences between cultures is to examine the deep informational and associative potential of words. The free associative experiment made it possible to discover the deep associative contours of the money names, which are manifested in a combination of words. The peculiarities of the functioning of units with the general meaning of "money" in English, as well as data from dictionaries, suggests that the role of money in the life of society is increasing.

Money is increasingly playing the role of an agent who can successfully manipulate people and society as a whole. In connection with changes in society, people's lives change and with them their attitudes towards money. These changes are reflected in the language. Using linguistic material, a specific portrait of the concept under consideration is presented. The study showed that the selected fragment is very representative in the linguistic worldview, since it is important for the conceptualization of the world by a person and his present existence in it. The meaning of the term MONEY has been confirmed by a variety of different linguistic means for its naming and description.

REFERENCES:

1. Jackendoff R. Semantics and cognition. Cambridge (Mass.). L., 1983. - XIII. - 283p.
2. Panchenko N.N. Means of objectification of the concept of "deception" (on the material of English and Russian): Author's abstract. Candidate dissertation in Philology. Science: 10.02.20. / Volgograd, 1999. 24 p.
3. Stepanov Y.S. Constants. Dictionary of Russian culture. Research experience / Y.S. Stepanov. M., 1997. - 824p.

UO'K 81-13

O'ZBEK TILI MUSIQIY TERMINLARIDA METAFORA

Sh. Eshbo'tayeva, tadqiqotchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili musiqiy terminlarining jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilganilishi hamda metafora usuli orqali yasalishi bayon qilingan. Musiqiy terminlar badiiy uslubda ma'no ko'chishiga uchrab, jonlantirish, epitet, metafora, o'xshatish kabi uslubiy xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan. Asosan cholg'u nomlari hamda ularning qismlarini ifodalovchi, shu bilan birga, maqom tarkibiga oid terminlar badiiy asar tarkibida obrazlilik va ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilishi misollar orqali asoslangan.

Kalit so'zlar: musiqiy termin, musiqiy terminologiya, badiiy uslub, metafora, epitet, jonlantirish, o'xshatish

Аннотация. В статье описывается изучение узбекских музыкальных терминов в мировой и узбекской лингвистике и их построение через метафору. Было обнаружено, что музыкальные термины имеют стилистические особенности, такие как анимация, эпитет, метафора и аналогии, поскольку они меняют значения в художественном стиле. По сути, названия инструментов и их частей, а также условия статус-кво основаны на примерах, которые служат для увеличения образности и воздействия произведения искусства.

Ключевые слова: музыкальный термин, музыкальная терминология, художественный стиль, метафора, эпитет, анимация, сравнение

Abstract. This article describes the study of Uzbek musical terms in world and Uzbek linguistics and their construction through metaphor. Musical terms have been found to have stylistic features, such as animation, epithet, metaphor, and analogy, as they have shifted meanings in artistic style. Basically, the names of the instruments and their parts, as well as the terms of the status quo, are based on examples that serve to increase the imagery and impact of the work of art.

Key words: musical term, musical terminology, artistic style, metaphor, epithet, animation, analogy

Kirish (Introduction) Tilning madaniyat va san'at sohalari bilan munosabatini o'rganish natijasida xalq ma'naviyatini ochib berishga qaratilgan ushbu tadqiqot o'zbek tili tarkibidagi musiqiy terminlarning funksional-stilistik xususiyatlarini aniqlash orqali terminologik tizimni tartibga solish va ushbu terminlarning uslublar negizida o'ziga xos semantik o'zgarishlarni aniqlash yuzasidan ham muhimdir. Zero, "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash..."[1] kabi Prezidentimiz da'vatlari ham til xususiyatlarini ochib berish, tartibga solish, tarkibiy qismini sof saqlab qolish va boshqa ko'plab vazifalarni oldimizga qo'yadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Musiqiy terminlar nafaqat musiqashunoslar, balki tilshunoslar tomonidan ham alohida tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilgan. Tatar tilshunosligida E.M.Galimova "Традиционная музыкальная культура пермских татар"[2], rus tilshunosligida J.A.Nazarova "К истории музыкальной терминологии западно европейского происхождения в русском языке (названия музыкальных инструментов)"[3], Sh.D. Samushia "музыкальная терминология в современном русском языке"[4], Azarbayjon tilshunosligida Iroda Abdullayeva "Azərbaycan dilinin musiqişünaslıq terminlərinin leksik-semantik və struktur təhlili" va boshqa ko'plab tadqiqotlarni keltirish mumkin. Jahon tilshunosligida musiqiy terminlar bugungi kunda antoposentrik porodigma asosida tadqiq etilmoqda. Uning lingvokulturologik, kongnitiv tomonlari aniqlanmoqda.

O'zbek tilshunosligida esa musiqiy terminlarni ilk bor lingvistik qonuniyatlar asosida obyekt qilib olgan tadqiqot 1981-yil filolog Sami Azizov tomonidan yaratilgan "Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка" nomli dissertatsiya edi. Ushbu tadqiqotda musiqiy terminlarning leksik va grammatik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, N.Shodmonovning "Abdurahmon Jomiyning musiqiy atamalari"[5], Z.Aripovning "Arab musiqa terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida)"[6] nomli dissertatsiyalar tarkibida ham o'zbek tiliga arab va fors tillaridan o'zlashgan musiqiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishi yoritilgan. Shu bilan birga ko'pgina tadqiqotlar tarkibida musiqiy terminlar qisman izohlangan.

Musiqiy terminlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu ma'no ko'chishi natijasida yangi ma'nolarni hosil qilishidir. Ma'no ko'chish turlaridan metafora eng faol termin hosil qiluvchi hisoblanadi. "Terminlar sistemasida metaforaning o'rni va rolini o'rganish XX asrning 60-yillaridan boshlangan edi. M.Pavlovaning ta'kidlashicha, termin-metaforaning yuzaga kelishi har doim ham aniq individning ijodiy akti bilan boshlanadi. Metaforik ijod aktida albatta ikkita shaxs, ya'ni metaforani yasovchi va ushbu metaforaning mazmun-ma'nosini idrok etuvchi qatnashishi shart"[7]. Metafora semantik usulda yangi termin hosil qiladi. Ya'ni leksik qatlamga oid so'z muayyan sohada yangi tushunchani ifodalash uchun termin darajasiga ko'tariladi. Bu jarayonda terminga aylangan so'z o'zining uslubiy bo'yqadorlik darajasini yo'qotib, muayyan sohaga xoslanganlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Musiqiy terminlar O.S.Petrovskaya "Формирование и развитие музыкальной терминологии исполнительского искусства на материале (русского, итальянского,

английского, французского языков)»[8] nomli asarida: “Musiqiy terminologiya – bu inson faoliyatining ajralmas qismi. Inson faoliyati u yoki bu tarzda musiqa bilan bog‘liqdir. Milliy tilning ozmi-ko‘pmi qismini tashkil qiluvchi musiqiy terminlar nafaqat musiqachilar, balki tilshunolar uchun ham o‘rganish obyekti”, - ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Demak, musiqiy termin – doimiy kasbiy tushuncha. Semantik jihatdan yaxlit, og‘zaki va yozma shaklga ega. Tilning aniq, funksional jihatdan muhim elementi.

Musiqiy terminologiya – san’at terminlari to‘plami. O‘zbek tilida musiqiy terminlar semantik usulda ko‘pincha metafora orqali hosil bo‘ladi. N.Mahmudov “Metafora mohiyatidagi ikkiyoqlamalikka ko‘ra bu hodisaning ikki asosiy turini: lisoniy metafora va poetik (badiiy) metaforani farqlaydi”[9]. F.Usmonov ham lingvistik va badiiy metaforani farqlar ekan: “lingvistik metaforaning ekspressiv emasligi, badiiy metaforaning esa ekspressiv xususiyatiga egaligini qayd etadi”[10]. R.Suvanov ham “Metafora natijasida hosil bo‘lgan ko‘chma ma’noning ba’zi hollarda bunday bo‘yoqqa ega bo‘lmasligini ko‘rsatadi”[11]. Bugungi kunga kelib metafora oddiy stilistik figuragina emas, balki serqirra kognitiv fenomen, mental operatsiya, bilish usuli sifatida baholanmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Umumxalq tilidan metafora usulida ma’no ko‘chishi natijasida hosil bo‘lgan musiqiy terminlar:

“Kosa – dutor, tanbur, g‘ijjak va boshqa shunga o‘xshash cholg‘u asboblariida tovush beruvchi bo‘shliq”[12]. Bilamizki, kosa dastlab yog‘ochning ichi o‘yilib ishlangan va u asosan “suyuq taomlar solish uchun mo‘ljallangan oshxona anjomi” ma’nosida qo‘llanilgan. Ayni shunday musiqa cholg‘usining kosa kabi “o‘yilgan” qismi shakl o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chishiga uchrab, metafora usulida yangi musiqiy tushunchani ifodalagan: “Kosa – torli cholg‘u asboblariidagi yog‘och kosa bo‘lib, unga tor tortiladi. Kosa sado berishda tordan chiqadigan tovushni kuchaytiradi, boshqacha aytganda rezonans beradi”.

“Quloq” so‘zi o‘zbek tilidagi “qulog‘ini buramoq” birikmasi tarkibidagi harakat o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chishiga uchraganini ko‘rishimiz mumkin: “Quloq – torli cholg‘u asboblariida torlarni tortib turuvchi yog‘och yoki temir detal. Cholg‘u asbobini sozlashda quloqni burash yo‘li bilan torni tarang qilish yo bo‘shatish mumkin. Natijada tovush baland yo past bo‘ladi”. Ushbu termin asosan musiqiy cholg‘u qismlarini ifodalovchi terminlar tarkibiga kiradi.

“Qopqoq” so‘zi ham “ochiq qismni yopish” xususiyatiga ko‘ra ma’no ko‘chishiga uchragan va cholg‘u qismini ifodalovchi termin vazifasini bajargan: “...torli cholg‘u asboblariida kosa ustiga yopiladigan yupqa qopqoq bo‘lib, torlardan to‘lqinlanib chiqqan tovushni kuchaytirib beradi”.

“Til” leksik qatlamga oid ushbu so‘z shakli va bajaradigan vazifasi jihatdan metafora usulida ma’no ko‘chishini hosil qilib: “...bir yo ikki qavatli qamishdan yasalgan yassi parcha. Puflama yog‘och cholg‘u asboblariining ko‘piga til qo‘yilib chalinadi” kabi xususiyatlarga ega musiqiy termin shakllangan.

Ushbu termning -cha kichraytirish qo‘shimchasi qo‘shiladi. “Tilcha – yupqa va kichik plastinka bo‘lib, cholg‘u asboblariining chalinadigan tomoniga biriktiriladi”.

“Tirnoq” ushbu so‘z shakli va vazifasiga ko‘ra ma’no ko‘chishiga uchrab: “Dutor va tanburlarda tor bog‘laydigan pastki o‘rin. Bu atama ko‘proq Toshkentda qo‘llanilgan”.

“Dasta” bajaradigan vazifasi jihatdan metafora hodisasi asosida ma’no ko‘chishi yuz bergan. Ushbu musiqiy termin musiqiy cholg‘u nomlarining “tutqich” qismini ifodalaydi: “Dasta (fors.) – torli cholg‘u asboblariida maxsus, qattiq yog‘ochdan qilingan va tovush beruvchi kosaning yuqori qismiga o‘rnatilgan turli shakldagi yog‘och”. Ushbu termin o‘zlashma so‘z bo‘lib, o‘zbek tilining terminologik tizimiga xos.

“Parda – 1. Musiqa cholg‘u asboblariining ma’lum balandlikdagi tovushlarini olish uchun chap qo‘l barmoqlari bilan bosiladigan o‘rni. 2. Parda dutor, tanbur, rubobga o‘xshash cholg‘u asboblariida dastaga bog‘lanadigan, qo‘y ichagidan qilingan ip. 3. Musiqali sahna asarlariniing tugal yirik qismi – akt”. Ushbu termin “to‘siq” ma’nosini ifodalovchi o‘zlashma so‘zning bajaradigan vazifasi jihatdan metafora usulida ma’no ko‘chishi orqali hosil bo‘lgan.

“Qovurg‘a – dutorning kosasi ayrim yupqa taxtachalarning bir-biriga ulanishidan tuziladiki, mana shu kichik taxtachalar “qobirg‘a” deb ham ataladi”. Ushbu so‘z leksik qatlamdan terminologik tizimga shakl o‘xshashligi asosida ma‘no ko‘chishi natijasida o‘tgan.

Bunday musiqiy terminlar uslubiy xoslangan bo‘lib, hissiy bo‘yoqdorlikka ega emas. Ular musiqiy terminologiya sohasining musiqiy cholg‘u qismlarini ifodalash jarayonida termin darajasiga ko‘tarilgan.

Musiqiy terminlar badiiy uslubda, asosan, she‘r va g‘azallar tarkibida turli xil semantik o‘zgarishlarga uchrab, badiiy tasvir vositasi vazifasini bajaradi. XV asrda yashab ijod etgan Ahmadiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan ijodkorning “Sozlar munozarasi” asarida musiqiy terminlarda ko‘chim xususiyati yaqqol namoyon bo‘lgan. Masalan:

“Nuql g‘amu boda yurak qonidan,

Ud xijil nolishim afg‘onidin”[13]. Ushbu baytda ijodkor insongagina xos bo‘lgan “xijil bo‘lmoq” ma‘nosini “ud” cholg‘usining holatinini ifodalash uchun qo‘llab, badiiy ko‘chim orqali musiqiy terminga “xijil bo‘lmoq” xususiyatini yuklaydi.

“Majlisida hozir edi jam‘i soz,

Har biri bir pardada go‘yoyi roz”.

Ushbu baytda ijodkor “soz”, “parda” kabi musiqiy terminlarni badiiy ifodani jonlantirish maqsadida qo‘llaydi. Go‘yoki, barcha musiqiy cholg‘ular bir joyga yig‘ilib, o‘z pardalarida suhbatlashmoqdalar. Ma‘noviy ko‘chim musiqiy terminlar orqali jonlantirilgan.

Asarda ud sozi tilga kirib:

“Dediki: - Men barchangizga shohmen,

Jumla maqomatin ogohmen”, - deya o‘zini har nedan ogohlik ma‘nosini “maqomat” termini orqali bayon qiladi. Ya‘ni “maqomat arabcha maqomlar” ma‘nosini beradi. Ammo ushbu baytda u “har ne holatdan” ma‘nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Udning bu da‘vosini eshitgan “tanbura” cholg‘usi:

Barcha maqomatlarindin qolib,

Homila xotun kibi qorning solib,

Egri bo‘lib bo‘ying-u boshing sening,

Qolmadi behuda taloshing sening”, - deya go‘zal o‘xshatishni bayon qiladi. Ud cholg‘usining tashqi ko‘rinishini ijodkor ajoyib holat bilan ifodalashga erishadi. Go‘yoki, udning katta qorni “homilador ayolning qorniga” o‘xshatilib, endi uyatdan boshi egik holatda ekani aytiladi. Ahmadiy ushbu bayt orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida ud cholg‘usining tashqi ko‘rinishini mahorat bilan tasvirlaydi.

Tanburaning ustidan kulgan “qo‘buz”ga:

Tanbura dedi: - qo‘buze behayo,

Ochmag‘in og‘zimni, baroyi xudo.

Kim sanga tegmas degasen mouman,

Yuzunga choruq kibi tortib sozan.” Ushbu baytlarda “qo‘buz” va “sozan” musiqiy terminlari qo‘llangan bo‘lib, bu davrda ushbu cholg‘uning “sozan” nomli asbob orqali chalishganini go‘zal badiiy tasvir va jonlantirish orqali bayon qiladi. Bizningcha, “sozan” bugungi kundagi “kamon” bajargan vazifa, ya‘ni qo‘buzning yuzini tirnab chalish vazifasini bajargan.

Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” nomli asarida musiqiy cholg‘ular turli ko‘chimlar orqali jonlantirilgan. Asarda “yotug‘on” musiqiy cholg‘u nomi ham keltirilgan bo‘lib, uning xususiyatlarini ijodkor tanbur tilidan bayon qiladi:

“Marakada yotqurub urg‘on seni,

Xushlar urar ulki midog‘on seni”.

Demak, bu cholg‘u xalq marakalarida, to‘y-u tomoshalarida ijro etiluvchi urma-zarbli cholg‘udir. Ushbu termin bugungi kunda istorizmlar tarkibiga kirgan.

Shuningdek, munozaraga qo‘shilgan “rubob” cholg‘usini ijodkor tanbur tilida:

“Seni Abubakr rabboni urub,

Qo'ydi mulinglar eliga topshurib", - deya tasvirlaydi. Bu bilan ijodkor ushbu cholg'uning Abubakr rabboni tomonidan yaratilganiga ishora qiladi. Shu bilan ijodkor "rubob" so'zining "rabboni" so'zidan shakllaniga urg'u bermoqchi bo'ladi.

Asarda "g'ijjak" cholg'usining "kamon" bilan chalinganini go'zal o'xshatishlar orqali bayon qiladi. Shuningdek, "kungura" nomli cholg'uni tasvirlar ekan:

Boshing-ayog'ing sening ikki kadu,

Sen kibi rasvo manga bo'lg'ay adu", - deya bu cholg'uning "ikki kadu"dan iborat ekanini aytadi.

Munozara yakunida ijodkor:

"Ushbu muhol uzra fig'on tuzdilar,

Musiqoning majlisini buzdilar", - deya musiqiy sozlar piri "musiq"ni jonlantiradi.

"Oqibatikor o'shal jami soz,

Qildilar ohangi yarashmoqni soz" bayti orqali ijodkor cholg'u ma'nosini beruvchi "soz" musiqiy terminining "yaxshi" ma'nosini beruvchi so'z bilan omonim shaklda qo'llash orqali tajnis san'atini hosil qilgan.

Ahmediyning 6 sahifadan iborat "Sozlar munozarasi" asarini tahlil etish jarayonida ijodkorning musiq ilmidan xabardorligiga va badiiy qobilyatiga amin bo'lindi. Chunki, asarda ijodkor musiqiy terminlardan badiiy tasvir yaratishda mahorat bilan foydalanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations) Demak, musiqiy terminlar semantik usuldametaphora orqali yasaladi hamda badiiy asar tarkibida ma'no ko'chishiga uchrab, jonlantirish, epiteta, metafora, o'xshatish kabi uslubiy vasitalar bo'lib kela oladi. Natijada badiiy asar ta'sirchanligi, obrazlilik ta'minlanadi. Asosan cholg'u nomlari va ularning qismlarini ifodalovchi hamda moqom tarkibiga oid musiqiy terminlar badiiy asar tarkibida yuqoridagi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, ushbu terminlar tarkibida snekdoxa, metanomiya usullari orqali hosil bo'lganlarini aniqlash, ularning badiiy uslubdagi semantik taraqqiyotini belgilash kelgusidagi tadqiqqlarimiz maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. PF-5850. 21.10.2019. Lex.uz
2. Галимова Е. Традиционная музыкальная культура пермских татар. Казань, 2017.
3. Назарова Ж.А. К истории музыкальной терминологии западноевропейского происхождения в русском языке (название музыкальных инструментов). Автореф. Канд.филол.наук, 1973.
4. Самушина Ш.Д. Музыкальная терминология в современном русском языке. Автореф. Канд.фил. наук. – Тбилиси, 1969.
5. Shodmonov N. Abdurahmon Jomiyning musiqiy atamallari. Phd. – Toshkent, 1997.
6. Aripov Z. Arab musiq terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarining musiqashunoslikka oid asarlari asosida). DSc., 2019.
7. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2020. – B.91.
8. Petrovskaya O. Формирование и развитие музыкальной терминологии исполнительского искусства на материале (русского, итальянского, английского, французского языков). Автореферат. Майкоп, 2009. – С. 25-30.
9. Mahmudov N. Termin, obrazli so'z va metafora // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2013. – 4-son. B. – 3-4.
10. Usmonov F. Termin, metafora va sinonimiya // Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy anjumani materiallari. Andijon, 2015. – B. 35.
11. Suvanova R. Metaforalar tasnifiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2010. 6-son. – B. 111-112.
12. Akbarov I. Musiq lug'ati. – Toshkent, 1987. – B.168.
13. Ahmediy. Sozlar munozarasi. www.ziyouz.com

UO'K 808.3

KADASTRGA OID QISQARTMA SO'ZLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IFODALANISHI

Z.R. Fattoyeva, assistent, TIQXMMI Buxoro filiali, Buxoro

Annotasiya. Tilshunoslik insoniyat tilini o'rganadigan mustaqil fan bo'lib, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi - tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadi. Ushbu